

O‘ZBEKISTONDA O‘RTA TIBBIYOT HODIMLARINING KASBIY SO‘NISH HOLATINI O‘RGANISHNING DOLZARBLIGI VA DASTLABKI XULOSALARI

Xakimxo‘jayeva Sevara Rashid Qizi

Magistr. O‘zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi

<https://orcid.org/0009-0006-2363-2264>

“Bizda hamshira deganda, ko‘z oldimizga faqat “ukol” qilishni biladigan tibbiyot hodimlari keladi. Lekin, sog‘liqni saqlash tizimi rivojlangan mamlakatlarda, o‘rta tibbiyot hodimlarining bilim darajasi, malakasi va mas‘uliyati vrachlardan kam emas. Bizda esa hamma mas‘uliyat shifokorlar zimmasida qolib ketgan”

Sh.M.Mirziyoyev

Annotatsiya. Maqolada o‘rta tibbiyot hodimlarining kasbiy so‘nish holatini o‘rganishning dastlabki hulosalari keltirilgan. Respublikaning turli hududlaridagi 106 nafar o‘rta tibbiyot hodimlari ishtirokida Google Form platformasi orqali “Ijtimoiy so‘rovnoma” o‘tkazilgan. Natijalarga ko‘ra, respondentlarning 88,7 foizi ayollar, 37,7 foizi 36–45 yosh oralig‘ida, 72,6 foizi hissiy charchoq haqida ma‘lumotga ega, 47,2 foizida esa uning dastlabki belgilarining mavjudligi aniqlangan. So‘rovda qatnashganlarning 49 foizi ish jarayonida ruhiy charchoqni sezishi, 29 foizi esa kasbini o‘zgartirish haqida o‘ylaganini bildirgan. Bemorlar bilan muloqotda 28,3 foiz respondent kayfiyatida o‘zgarish bo‘lishini, 7,5 foizi esa kuchli empatiya holati yuzaga kelishini qayd etgan. Tahlil natijalari o‘rta tibbiyot hodimlarining psixologik resurslari muntazam sarflanib, yetarlicha tiklanmasligi ularning kasbiy samaradorligi va ruhiy barqarorligiga salbiy ta‘sir ko‘rsatishini ko‘rsatdi.

Kalit so‘zlar: o‘rta tibbiyot hodimlari, hodimlik turnover, kasbiy so‘nish, hissiy charchoq, empatiya.

Kirish.

“Burnout”- bu inglizcha so‘z bo‘lib, to‘g‘ridan-to‘g‘ri ma‘nosi “yonib ketish”, “quvvatsiz qolish”, “holdan toyish” deganidir. Psixologiyada esa bu atama “kasbiy so‘nish” yoki “emotsional charchash sindromi” ma‘nosida ishlatiladi. Bu holatni birinchi bo‘lib amerikalik psixolog Herbert Freudenberger 1974-yilda ilmiy adabiyotga kiritgan. Herbert Freudenberger burnout-“bu uzoq davom etuvchi professional stress natijasida yuzaga keladigan hissiy, jismoniy va ruhiy charchoq

holati bo‘lib, insonning ishga bo‘lgan qiziqishi va motivatsiyasini yo‘qotishidir”¹ degan. Keyinchalik Christina Maslach bu tushunchani chuqurlashtirib, “Maslach Burnout Inventory (MBI)” testini ishlab chiqqan. Christina Maslach “burnout-bu uzoq davom etgan ish stressi natijasida yuzaga keluvchi uch o‘lchovli sindrom, ya’ni emotsional charchash, depersonalizatsiya (insonlarga befarqlik), shaxsiy yutuqlar hissining kamayishi”² degan. Bundan tashqari adabiyotlarda kasbiy so‘nish - burnoutning yana bir qancha tariflari ham keltirilgan.

Hozirgi davrda tibbiyot tizimida inson omili, ya’ni o‘rta tibbiyot hodimlarining kasbiy salomatligi va ruhiy barqarorligi sog‘liqni saqlash sifatini belgilovchi eng muhim omillardan biri hisoblanadi. Kasbiy so‘nish - bu shaxsning ruhiy resurslarini tiklamasdan doimiy tarzda sarflash natijasida shakllanadigan, mehnat samaradorligi va insoniy munosabatlarga salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi psixologik sindromdir. U insonni faqat ishda emas, balki hayotiy qadriyatlar tizimida ham befarqlikka olib boradi. Shu sababli, bu hodisani o‘rganish, uning oldini olish va psixoprofilaktik choralarni ishlab chiqish zamonaviy psixologiyaning eng muhim yo‘nalishlaridan biridir.

Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti ham bu muammoni jiddiy ijtimoiy holat sifatida tan olib, 2019 yil kasbiy so‘nish (bornout) muommosini “Mehnat faoliyati bilan bog‘liq sindrom” sifatida xalqaro kasalliklar tasnifiga kiritdi. Umuman olganda, kasbiy so‘nish jahon miqyosida nafaqat shaxsning ruhiy sog‘lig‘iga, balki jamiyatning iqtisodiy va ijtimoiy barqarorligiga ham bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababli bugungi kunda kasbiy so‘nish muammosi inson resurslarini boshqarish, psixologik xizmatlar tizimi va sog‘lom mehnat muhitini yaratish siyosatining ajralmas qismi sifatida qaralmoqda.

O‘rta tibbiyot hodimlari bu – tibbiyot sohasida o‘rta maxsus tibbiy ma’lumotga ega bo‘lgan, tibbiy oliy ma’lumotli (shifokor) emas hodimlar tushuniladi. Masalan: hamshiralar, feldsherlar, provizorlar, laboratoriya texniklari, sanitariya-va emlash hodimlari va boshqa o‘rta ma’lumotli sog‘liqni saqlash xizmatlari hodimlari. O‘zbekistonda bu tushuncha “o‘rta bo‘g‘in tibbiyot hodimlari” degan huquqiy hujjat bilan belgilanadi³. 2024-yil 1-yanvar holatiga O‘zbekistonda faoliyat yuritayotgan o‘rta tibbiyot hodimlari soni 387,6 ming nafarni tashkil etmoqda. Shulardan ayol o‘rta tibbiyot hodimlari soni 353 ming kishiga yetgan. Bu demak, o‘zbek sog‘liqni saqlash tizimida o‘rta tibbiyot hodimlari keng qamrovli kadrlar guruhini tashkil qiladi.

O‘rta tibbiyot hodimlari sog‘liqni saqlash sektorida juda muhim o‘rin egallaydi. Ularning kasbiy burch va majburiyatlari, vazifalari tibbiyot sifatini yaxshilashda katta ahamiyatga ega.

¹ Freudenberger H.J. Staff Burnout. Journal of Social Issues, Vol. 30, No. 1. - P. 159-165.

² Maslach C., Jackson S.E. The Measurement of Experienced Burnout. Journal of Occupational Behavior, Vol. 2. - P. 99-113.

³ “O‘rta bo‘g‘in tibbiyot xodimlarining kasbiy saviyasi va malakasini oshirishni rag‘batlantirish to‘g‘risida” gi 06.12.2006yildagi PQ-524-son

Agar oʻrta tibbiyot xodimlari orasida kasbiy soʻnish juda keng tarqalgan boʻlsa, sogʻliqni saqlash tizimiga quyidagi zararlar kelishi mumkin: ish samaradorligining pasayishi: charchoq, ruhiy resurslarning tugashi sababi bilan xodimlar bemorlarni parvarishlash, nazorat qilish, protsedura bajarishda kamroq samarali boʻlishi mumkin. Xizmat sifati va xavfsizlikning buzilishi: xodimlar charchagan yoki depersonalizatsiyaga uchragan boʻlsa, bemorlarga mehr-eʼtibor kamayishi, xato qilish ehtimoli oshishi va bemor xavfsizligi xavfi ortishi mumkin.

Hodimlik turnover- (inglizcha employee turnover) — bu tashkilot yoki muassasada xodimlarning ish joyini tark etish darajasiining oshishi, ishdan chiqishlar va boʻsh ish oʻrinlari sonining ortishi: bu esa qolgan xodimlar uchun yukni oshiradi va tizimda malakali kadrlar yetishmovchiligi paydo boʻlishiga olib keladi. Tashkilot ichidagi jamoaviy ruhiyat pasayishi: xodimlar orasidagi hamkorlik, jamoaviy qadriyatlar, ruhiy salomatlik holati nosogʻlom boʻlsa, bu sogʻliqni saqlash muassasasining jahon bozorida yoki milliy tizimdagi raqobatbardoshligini zaiflashtirishi mumkin. Bemorlar tajribasi va xizmatga boʻlgan ishonchning susayishi: xizmat koʻrsatilishi past darajada boʻlsa, bemorlar tizimga, xodimlarga boʻlgan ishonchini yoʻqotishi mumkin. Moliyaviy xarajatlarning oshishi: kam samarali xizmat, koʻp xato yoki bemorlarni qayta yotqizilishi, turnover bilan bogʻliq xarajatlar sogʻliqni saqlash tizimiga qoʻshimcha yuk boʻlishi mumkin.

Nazariy metodologik asoslari.

Kasbiy soʻnish muommosi bugungi kunda jahondagi turli hil rivojlangan mamlakatlarning dolzarb muommosi sifatida qaralmoqda. Shuning uchu bir qancha ilmiy tadqiqotlar olib borilgan, keng tahlil qilingan. Xususan, xorijiy mamlakatlar, MDH mamlakatlari va Oʻzbekistonda olib borilgan tadqiqotlari mazkur muammoning oʻziga xos jihatlarini ochib bergan.

I. Xorijiy olimlar tomonidan oʻrganilishi:

1. Choi B.S. va hammualliflar (2018, Janubiy Koreya) burnout va psixologik omillar bogʻliqligi boʻyicha tadqiqotlarida 386 nafar hamshira ishtirokida hissiy charchoqning stress, travma, depressiya, psixologik bardoshlilik va ijtimoiy qoʻllab-quvvatlov bilan bogʻliqligi aniqlangan. Burnoutning psixotrauma va ijtimoiy omillarga bevosita bogʻliqligi isbotlangan.
2. Khatatbeh H. va boshqalar (2022, Nursing Open) burnout va hayot sifati oʻrtasidagi bogʻliqlikni 2009– 2021 yillarga oid tizimli sharhlagan. Burnout hamshiralar hayot sifati va psixologik farovonligiga salbiy taʼsir koʻrsatishi isbotlangan.
3. Poku C.A., Donkor E., Naab F. (2020, BMC Nursing) - Gana shahrida 232 nafar hamshira ishtirokidagi tadqiqot boʻlib, ish muhiti va hissiy charchoq omillarini oʻrgangan. Ish bosimi, ish sharoiti, kasbiy stress hissiy charchoqqa asosiy taʼsir qiluvchi omillar ekanligi aniqlangan.

II. MDH mamlakatlari tadqiqotlari kasbiy soʻnish tadqiqotlarida oʻrganilishi:

1. Kooktapeh Z.G. va hammualliflar 2023– 2024, PRISMA 2020) o‘z tadqiqotlarida COVID-19 davrida burnoutning kuchayishini meta-tahlil qilgan. Pandemiya davrida hamshiralarda burnout darajasi keskin oshgani, MBI bo‘yicha 14 ta tadqiqot tahlil qilinib, asosiy omillar sifatida ortiqcha yuklama, qo‘rquv, xavfsizliksiz ish muhiti ko‘rsatilgan.
 2. Panasenko T.V., Azarko E.M. (2021) - Freudenberger, Maslach, Boyko, Schaufeli modellariga asoslangan holda burnoutning rivojlanish mexanizmi yoritilgan. . Tibbiyot xodimlarida burnout mexanizmi o‘rgangan.
 3. Koluzaeva T.V. (2020) - burnoutning ko‘p omilli tabiati, uning oqibatlar va Boyko hamda Maslach metodikalari asosida erta tashxislash yo‘nalishlari ishlab chiqilgan. Burnout sabablari va profilaktikasini yoritgan.
 4. Kobyakova O.S. va hammualliflar (2021) o‘z tadqiqotlarida avlodlar bo‘yicha burnout farqini o‘rganishgan, 2486 nafar hamshira ishtirokida tadqiqot amalga oshirilgan. Y va Z avlodlarida burnout eng yuqori, asosiy sabablar: kam maosh, ish yuklamasi, uyqusizlik. Har avlod uchun turli profilaktika strategiyalari taklif qilingan.
 5. Komolkina O.I. (2016) - 39 nafar hamshira (reanimatsiya, psixonevrologiya, terapiya). Boyko metodikasi bo‘yicha hissiy so‘nishning 12 ta simptomi tahlil qilingan. Turli bo‘lim hamshiralarda burnout farqlari ko‘rsatilgan.
 6. Mongush Ch.N., Dospan-ool S.S. (2021) - eng yuqori depersonalizatsiya va professional yutuqlarning pasayishi intensiv terapiya bo‘limi xodimlarida aniqlangan. Reanimatsiya bo‘limi hamshiralarda burnoutni o‘rganishgan.
 7. Chastoyedova I.A., Mukhacheva E.A. (2017) ilmiy maqolasida burnoutning ixtisoslikka ko‘ra farqlanishi- 157 nafar hamshira asosida burnoutning bo‘limga qarab o‘zgarishi aniqlangan. Eng yuqori burnout - stressli bo‘limlarda aniqlangan.
- III. O‘zbekistonda kasbiy so‘nish muommosini tadqiqotlarda o‘rganilishi:
1. Botirova D.B. (2024) - pedagoglarda burnoutga olib keluvchi psixologik omillar: past baholanish, stressga chidamlilikning pastligi, salbiy kommunikatsiya ekanligini ko‘rsatgan. MBI va Boyko metodikalaridan foydalangan. Pedagoglarda kasbiy so‘nish holati tadqiqot mavzusi etib belgilangan.
 2. Narzulloyeva S.S. (2024) - hamshiralarda burnoutning ijtimoiy-psixologik determinantlari, kasbiy kompetentlik bilan bog‘liqligi o‘rganilgan. . Hamshiralarda kasbiy kompetentlik mavzusida ilmiy tadqiqot olib borgan.
 3. Mamadiyarova D.U. (2025) o‘z tadqiqotlarida bo‘lajak shifokorlarda stress va burnoutning interaktiv bog‘liqligi, psixologik moslashuv mexanizmlari ishlab chiqilgan. Shifokorlarda kasbiy stress va burnoutni o‘rgangan.
 4. Usmonova Shaxlo S.S. (2025) ilmiy maqolasida hamshiralarda kasbiy charchoq mavzusida bo‘lib, maqolada O‘zbekiston tibbiyot tizimidagi burnout sabablari: yuklama, navbatchilik, past rag‘bat deb ko‘rsatgan. Burnoutni kamaytirish strategiyalari taklif qilingan.

- 5.Akbarova M.E. (2025) - Boyko metodikasi asosida tibbiyot xodimlarida stressni kamaytirish uchun psixologik treninglar samaradorligi isbotlangan.
- 6.Qadirova Sh.S. (2024) - Maslach va Boyko testlari asosida burnoutning kasbiy tasavvurlar shakllanishiga ta'sirini tahlil qilgan.
- 7.Arifdjanova M.A., Babadjanova F.A., Shagiyazova L.M. (2021) Shifokorlarda burnout darajasi rivojlanishini talabalarda o'rgangan. 45 % tibbiyot talabalarida burnout belgilari aniqlangan. 1– 2 kurslarda - hissiy qo'llab-quvvatlov yetishmasligi, 3– 4 kurslarda - amaliyot, navbatchilik asosiy omillar sifatida qayd etilgan.
- 8.Yadgarova N.F. (2024) - turli yosh guruhlardagi shifokorlarda burnout darajasi farqlari, shaxsiy deformatsiyalar (ESS) tahlil qilingan. O'z ilmiy maqolasida shifokorlarda ESS darajasini yoritib bergan.
9. Ilxamova D.I. (2024) - burnoutning o'rganilganlik darajasi, emotsional charchoqning tarixiy va nazariy tahlili, nazariy asoslari, O'zbekiston sharoitida tadqiqot zarurati yoritilgan.
10. Ramanova D.Yu., Usmanbekova G.K., Kamilova N.G. (2020– 2021) o'z tadqiqotlarida burnoutning rivojlanish bosqichlari.-hamshiralarda burnoutning shakllanish bosqichlari, xavf omillari va profilaktikasi bo'yicha tahlil qilgan. Burnout jarayoni bosqichma-bosqich rivojlanishini ko'rsatadi.

Xulosa sifatida, burnout bo'yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlarda burnout muommosi ancha yillar o'rganila boshlagan bo'lib, hoirgi kunda uning yechimlari yuzasidan tadqiqotlar olib borilmoqda. Xorijiy maqolalarda stress, depressiya, resilientlik, ijtimoiy qo'llab-quvvatlov va ish muhiti sharoitlari bilan bog'liqlikni asosiy yo'nalish sifatida o'rganilgan. MDH mamlakatlarida Maslach, Boyko, Schaufeli modellariga asoslangan mexanizmlar, bo'limlar va avlodlar bo'yicha farqlar, profilaktik yondashuvlar keng tadqiq etilgan. O'zbekiston ilmiy ishlarida esa kasbiy so'nish muommosi yaqin yillardan boshlab o'rganilish boshlangan. O'zbekistonda so'nggi yillarda kasbiy so'nish muommosiga doir bir qancha tadqiqotlar olib borilgan, ilmiy maqolalar yozilgan. Olib borilgan tadqiqotlarda pedagoglarning kasbiy so'nish holatlari ko'proq o'rganilgan. Maqolalarda tibbiyot hodimlari va pedagoglarda kasbiy so'nishning ijtimoiy-psixologik determinantlari, kasbiy kompetentlik, stressga bardoshlilik va amaliy profilaktik yondashuvlar asosiy yo'nalish sifatida shakllangan. Ilmiy izlanishlar va tadqiqotlarda o'rta tibbiyot hodimlarining kasbiy so'nish masalasiga deyarli e'tibor qaratilmagan.

O'rta tibbiyot hodimlarining kasbiy so'nishiga ta'sir etuvchi ijtimoiy-psixologik omillarni tadqiq qilishdan maqsad: o'rta tibbiyot hodimlarining kasbiy so'nishiga ta'sir etuvchi ijtimoiy-psixologik omillarni o'rganish tahlil qilish va kasbiy so'nishni oldini olish bo'yicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqish, sog'liqni saqlash sektorida hamshiralarning burnoutidan natijasida kelib chiqadigan muommolar profilaktikasi va malakatimizda tibbiy sifatni yaxshilashga hissa qo'shish.

Materiallar va natijalar.


O'rta tibbiyot hodimlarining kasbiy so'nishini o'rganishni ilk bosqichlarida dastlabki hulosalarni bilish maqsadida Respublikaning turli hududlaridagi tibbiyot muassasalarida faoliyat yuritadigan o'rta tibbiyot hodimlaridan google form sayti orqali "Ijtimoiy so'rovnoma" o'tkazildi. So'rovnomada 106 nafar o'rta tibbiyot hodimlari ishtirok etishdi.

Yosh bo'yicha taqsimlanishi: So'rovnomada ishtirok etgan respondentlarning 5 nafari 21-25 yosh, (4.72%), 16 nafari 26-30 yosh (15.09%), 24 nafari 31-35yosh (22.64%), 40 nafari 36-45 yosh (37.74 %) 21 nafari 45 yoshdan katta (19.81%) ni tashkil qildi. 1-rasm.

Jins bo'yicha taqsimlanishi: Respondentlarning 94 nafari ayol (88.7%), 12 nafari erkak (11.3%) hodimlar.

Hududlar bo'yicha taqsimlanishi: 73 nafar respondent shahar hududida (68.9%), 30 nafar respondent (28.3%) viloyat tuman markazida, 3 nafar respondent qishloq hududida faoliyat olib boradi. 2- rasm.

Yoshingiz?



1-rasm.

Ish joyingiz qanday hududda joylashgan?



2-rasm.

Oilaviy holati bo'yicha taqsimlanishi: 4 nafar respondent turmush qurmagan (3,77%), 10 nafar respondent oilalik (9,43%), 54 nafar respondent oilalik, farzandi bor (50,94%), 27 nafar respondent katta oilasi bor (25,47 %), 11 nafar respondent yolg'iz ona (10,38%). 3-rasm.

Kasbiy tajribasi bo'yicha taqsimlanishi: 13 nafar respondent (12,26%) 1-3 yillik ish tajribaga ega, 9 nafar respondent (8,49%) 3-5 yillik ish tajribaga ega, 21 nafar respondent (19,81%) 5-10 yillik ish tajribaga ega, 27 nafar respondent (25,47%) 10-15 yillik ish tajribaga ega, 18 nafar respondent (16,98%) 15-20 yillik ish tajribaga ega, 18 nafar respondent (16,98%) 20 yildan ko'p ish tajribaga ega hodimlar 4-rasm.

Oilaviy holatingiz?



- Turmush qurmagan : 4 (3.77%)
- Oilalik : 10 (9.43%)
- Oilalik, farzandim bor : 54 (50.94%)
- Katta oilam bor : 27 (25.47%)
- Yolg'iz onaman : 11 (10.38%)

3-rasm.

Kasbiy tajribangiz qancha?




- 1-3 yil : 13 (12.26%)
- 3-5 yil : 9 (8.49%)
- 5-10 yil : 21 (19.81%)
- 10-15 yil : 27 (25.47%)
- 15-20 yil : 18 (16.98%)
- 20 yildan yuqori : 18 (16.98%)

4- rasm.

Respondentlarning hissiy charchoq, emotsional charchoq sindromlari haqida ma'lumotga ega ekanligi: 77 nafar respondent(72,64%) aniq ma'lumotga ega, 20 nafar respondent (18,87%) aniq ma'lumotga ega emas, 3 nafar respondent (2,83%) so'rovnoma qatnashish sababli bilib olgan, 6 nafar respondent (5,66%) bu haqida ma'lumotga ega emas. 5-rasm.

Siz emotsional charchoq, hissiy charchoq, kasbiy so'nish nima ekanini bilasizmi?




- Ha bilaman : 77 (72.64%)
- Eshitganman lekin aniq bilmayman : 20 (18.87%)
- Qiziqib hozir bilib oldim : 3 (2.83%)
- Savolni tushunmadim : 6 (5.66%)

5-rasm.

Hissiy charchoq belgilarini his qilishlik bo'yicha respondentlar holati: 26 nafar respondent (24,53%) bir nechta simptomlarini his qilgan, 50 nafar respondent

(47,17%) da simptomlarning boshlanishi, 25 nafar respondent(23,58%) da hissiy charchoq belgilari yo‘q, 5 nafar respondent(4,72%) hissiy charchoq haqida ma’lumotga ega emasligi va buning natijasida organizmida hissiy charchoqning psixologik-fiziologik simptomlarini farqlamaganligi aniqlandi. 6-rasm.

Sizda hissiy charchoq belgilari seziladimi?




6-rasm.

Respondentlarning 73 nafari (68,87) ishga borishdan oldin kayfiyati a’lo darajada bo‘lishini, 25 nafar respondent(23,58%) ba’zan ishtiyoq bilan borishini, 4 nafar respondent (3,77%) umuman borishni istamasligini, 4 nafar respondent(3,77%) majburiyat yuzasidan borishini takidlagan. Ish yakunida kayfiyati xursandchilik va ba’zan ishtiyoq bilan boradigan 98 nafar respondent (92.45%)larning 22 nafari (20,75%) tetik holda, 24 nafari (22,64%) odatiy holda ishdan qaytishi aniqlandi. Ya’ni 52 nafar respondent (49%)ga ishlash jarayoni ruhiy holatini charchagan, toliqqan holda o‘zgarishiga sabab bo‘lishi aniqlandi.


7-8 rasm.

Ishga borishda kayfiyatingiz qanday bo'ladi?



7-rasm.

Ish kunining oxirida o'zingizni qanday his qilasiz?



8-rasm.

O'rta tibbiyot hodimlarining ish faoliyati bevosita insonlar bilan aloqadar bo'lib, lavozim majburiyatlaridan kelib chiqqan holda bir vaqtning o'zida turli hil aholi kontingentlari bilan ishlaydilar. Masalan: sog'lom aholi (ayollar, bolalar, katta yoshli insonlar, qariyalar), bemorlar, dispenser nazoratida turuvchilar bilan. Lekin ularning orasida ishlash qiyinchilik tug'diradigan murakkab qismnini bemorlar tashkil qiladi. Bemorlar kasallik tufayli nafaqta salomatligida balki ruhiy holatida ham o'zgarishlar yuzaga keladi. Natijada bemorlar psixikasida funksional ruhiy buzilishlar paydo bo'ladi. Bemorlar bilan ishlash murakkab jarayon hisoblanadi. O'rta tibbiyot hodimlarining ish faoliyatida kasbiy so'nishni keltirib chiqaruvchi faktorlardan biri turli hil bemorlardir. Shuning uchun so'rovnoma respondentlarga "Bemorlar bilan muloqotda o'zingizni qanday his qilasiz?" degan savol berildi. 65 nafar respondent (61,32%) qiynalmasligini. 8 nafar respondent (7,55%) kuchli "empatiya" ya'ni boshqa insonning hissiy holatini tushunish, uning kechinmalarini ichdan his etish va shu asosda unga nisbatan ruhiy yaqinlikni his qilish qobiliyati) yuzaga kelishini, 3 nafar respondent (asabiylashish holati yuzaga kelishini, 30 nafar respondent (28,3%) bemorlar turlari va ularning holatiga ko'ra kayfiyatida o'zgarishlar bo'lishini bildirishgan.

9-10- rasm.

Siz ishlaydigan axoli kontingentini ko'proq kimlar tashkil qiladi? (bir nechta javob tanlashingiz mumkin)



■ sog'lom aholi : 61 (23.28%)
 ■ bemorlar : 47 (17.94%)
 ■ bolalar : 37 (14.12%)
 ■ ayollar : 37 (14.12%)
 ■ katta yoshli insonlar : 39 (14.89%)
 ■ qariyalar : 23 (8.78%)
 ■ dispanser nazoratida ro'yxatda turuvchilar (6.87%)

9-rasm.

Bemorlar bilan muloqot o'zingizni qanday his qilasiz?



■ Hech ham qiynalmayman : 65 (61.32%)
 ■ Ularning kasalliklaridan siqilaman, empatiya holati kuchli : 8 (7.55%)
 ■ Asabiylashaman, tezroq ketishini hohlayman : 3 (2.83%)
 ■ Bemorlar har hil, ularga qarab kayfiyatim o'zgaradi : 30 (28.3%)

10-rasm.

So'rovnomada qatnashgan 106 nafar respondentning 51 nafar (48,11%) "Kasbingizni o'gartirgan bo'larmidingiz?" degan savolga aslo yo'q javobini bergan. 24 nafar respondent (22.64%) bu haqida o'ylab ko'rmaganini bildirgan. 22 nafar respondent (20,75%) ehtimoliy o'zgartirishni hohlashini, 9 nafar respondent (8,49%) darhol bu kasbdan vos kechishini bildirgan. 11-rasm.

Agar imkon bo'lsa, kasbingizni o'zgartirgan bo'larmidingiz?




■ Aslo yo'q : 51 (48.11%)
 ■ Yo'q, o'ylab ko'rmaganman : 24 (22.64%)
 ■ Ehtimol, aniq bilmayman : 22 (20.75%)
 ■ Ha, darhol : 9 (8.49%)

11-rasm.

So'rovnoma so'ngida respondentlarning o'z kasbiga ijtimoiy muhitning bahosi qanday ekanligini aniqlash maqsadida "Odamlar o'z kasbingizga munosabat qanday deb o'ylaysiz?" degan savolga quyidagi javoblar olindi. 40 nafar respondent (37,74%) hurmat qilinishini, 47 nafar respondent (44,34%) jamiyatda o'z kasbini iliq qabul qilinishini, 5 nafar respondent (4,72%) jiddiy kasb sifatida qabul qilinmasligini, 14

nafar respondent(13,21%) yuzaki hurmat bilan munosabatda bo‘linishini belgiladi. 12-rasm.

Odamlar sizning kasbingizga munosabati qanday deb o‘ylaysiz?



12-rasm.

Muhokama va umumiy hulosalar.

So‘rovnoma natijalari o‘rta tibbiyot xodimlari orasida kasbiy so‘nish sindromi shakllanish xavfi yuqori ekanini ko‘rsatdi. Tadqiqotda ishtirok etgan 106 nafar respondentlarning demografik, kasbiy va psixologik ko‘rsatkichlari tahlili ularning psixologik resurslarining muntazam ravishda sarflanishi, lekin yetarlicha tiklanmasligi holatini aniqlash imkonini berdi.

1. Demografik va ijtimoiy jihatlar. So‘rovnomada ishtirok etganlarning 88,7 % ayollar bo‘lib, bu O‘zbekiston sog‘liqni saqlash tizimida o‘rta tibbiyot kadrlarining asosiy qismini ayollar tashkil etishini tasdiqlaydi. Yosh taqsimotida 36–45 yoshdagi xodimlar (37,7 %) ustunlik qilgani, ish faoliyatida barqarorlik davrida bo‘lgan, ammo kasbiy charchashga nisbatan yuqori sezuvchanlik davrini ifodalaydi. Respondentlarning katta qismi oilali va farzandli (50 % dan ortiq) bo‘lgani, ularning shaxsiy va kasbiy rollar orasida muvozanatni saqlash zaruratini kuchaytiradi. Bu esa ko‘plab tadqiqotlarda: Maslach & Leiter va Schaufeli et al. kasbiy so‘nishning muhim ijtimoiy omili sifatida qayd etilgan.

2. Kasbiy tajriba va so‘nish xavfi o‘rtasidagi bog‘liqlik. Tajriba ko‘rsatkichi bo‘yicha respondentlarning yarmi 10 yildan ortiq mehnat stajiga ega. Ilmiy manbalarda uzoq yillik bir xil sharoitdagi ish faoliyati, ayniqsa yuqori emotsional talablar bilan kechuvchi kasblarda, “chronic job strain” (doimiy ish stressi) deb ataladigan holatni kuchaytirishi ta’kidlanadi. Ushbu guruhdagi xodimlarda motivatsiya pasayishi, shaxsiy yutuq hissining kamayishi va depersonalizatsiya belgilari tez-tez kuzatiladi.

3. Hissiy charchoq va o'zini anglash darajasi. So'rov natijalariga ko'ra, respondentlarning 72,6 % hissiy charchoq haqida ma'lumotga ega, biroq ulardan deyarli yarmi (47,2 %) o'zida ushbu simptomlarning boshlanishini sezgan. Bu holat tibbiyot xodimlari orasida burnout haqida xabardorlik mavjud bo'lsa-da, profilaktik mexanizmlar sust ishlayotganini anglatadi. Maslach modeliga ko'ra, hissiy charchoq - kasbiy so'nishning birlamchi bosqichi bo'lib, uni erta aniqlamaslik depersonalizatsiya va professional yutuq hissining pasayishiga olib keladi.

4. Ishga nisbatan motivatsion munosabatlar. Respondentlarning 49 % ishlash jarayonida ruhiy charchoqni sezishi, ammo 68,9 % ishga borishdan oldin kayfiyatining ijobiy ekanini bildirishi, bu xodimlarda ichki kasbiy motivatsiya mavjudligini, lekin ish muhitining psixologik resurslarni tez sarflayotganini ko'rsatadi. Ilmiy adabiyotlarda bu holat "organizational energy drain" deb yuritiladi ya'ni ishga bo'lgan ijobiy munosabat ish jarayonida haddan tashqari ruhiy talablar tufayli so'nib boradi.

5. Kasbga sodiqlik va ijtimoiy baho. So'rov natijalariga ko'ra, 48 % respondent o'z kasbini aslo o'zgartirmasligini bildirgan, bu esa professionallik va identifikatsiya darajasining yuqoriligidan dalolat beradi. Shu bilan birga, 29 % (20,7 % + 8,5 %) respondent kasbini o'zgartirishga moyilligini bildirgan — bu esa mehnat muhitida hissiy toliqish va ijtimoiy qadrsizlanish hissi mavjudligini anglatadi. Kasbga ijtimoiy baho jihatidan 44,3 % kasb iliq qabul qilinadi deb bilsa-da, 17 % atrofidagi xodimlar jamiyat tomonidan yuzaki hurmat qilinishini his qiladi. Bu holat tibbiyot xodimlarining psixologik xavfsizlik hissini zaiflashtiradi va Maslach modelidagi "lack of appreciation" omiliga mos keladi.

6. Bemorlar bilan muloqotdagi emotsional yuklama. Respondentlarning 61,3 % bemorlar bilan muloqotda qiynalmasligini bildirgan bo'lsa-da, 28,3 % ularning holatiga qarab kayfiyatining o'zgarishini aytgan, 7,5 % kuchli empatiya sezgan. Bu natijalar tibbiyot xodimlari uchun empatik stress (compassion fatigue) ehtimoli mavjudligini ko'rsatadi. Bu holat kasbiy so'nishning subkomponentlaridan biri bo'lib, tibbiyot kasblarida emotsional charchashning asosiy manbai sifatida tadqiqotlarda qayd etilgan. Olingan ma'lumotlar o'rta tibbiyot xodimlarida kasbiy so'nish sindromi rivojlanishining ijtimoiy-psixologik sharoitlari mavjudligini ko'rsatadi. Ularning ko'pchiligi ayollar bo'lib, bu ijtimoiy va oilaviy yuklamaning ortishini anglatadi, ish staji yuqori bo'lgan xodimlarda hissiy charchoq belgilari ko'proq uchraydi, kasbga ijobiy munosabat saqlangan bo'lsa-da, mehnat muhiti va ijtimoiy qadrlanish darajasi yetarli emas, empatik stress va doimiy inson bilan ishlash talabi ularning psixologik resurslarini tez sarflaydi.

Shunday qilib, o'rta tibbiyot xodimlari orasida kasbiy so'nishning oldini olishda psixologik rehabilitatsiya, superviziya, ijtimoiy qo'llab-quvvatlash dasturlarini joriy etish, shuningdek, ish sharoitini sotsiopsixologik jihatdan optimallashtirish zarur.

Bu yondashuv sogʻliqni saqlash tizimining barqarorligi va xizmat sifatini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Oʻrta tibbiyot hodimlarining kasbiy soʻnishiga taʼsir etuvchi ijtimoiy-psixologik omillar tizimli ravishda yetarlicha oʻrganilmaganligi, milliy dasturlar, xalqaro tipdagi tashkilotlar ishlab chiqilmaganligi “Oʻrta tibbiyot hodimlarining kasbiy soʻnishi va unga taʼsir etuvchi ijtimoiy-psixologik muommolar”i mavzusida tadqiqot olib borishning ahamiyatligini koʻrsatdi. Kasbiy soʻnish (burnout) holatlari oʻrta tibbiyot hodimlari orasida tez-tez kuzatilishi, ularning kasbiy samaradorligiga, ruhiy barqarorligiga, bemorlarga nisbatan empatiya darajasi va jamoaviy munosabatlariga salbiy taʼsir koʻrsatadi. Shu sababli, bu holatni keltirib chiqaruvchi oʻrta tibbiyot hodimlarining kasbiy soʻnishi va unga taʼsir etuvchi ijtimoiy-psixologik omillarni oʻrganish juda dolzarbligini koʻrsatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining qarori PQ–524 (06.12.2006). Oʻrta boʻgʻin tibbiyot hodimlarining kasbiy saviyasi va malakasini oshirishni ragʻbatlantirish toʻgʻrisida. URL: <https://lex.uz/docs/1089715>
2. Hakimxoʻjayeva S. R., Nabiyeva D. A. Tibbiyot kasbiga kirish: Oʻquv-uslubiy qoʻllanma. – Toshkent: “Yosh avlod matbaa”, –2022. – 335 b.
3. Boʻlajak umumiy amaliyot shifokorlarining kasbiy stressi va uni bartaraf etishning psixologik jihatlari. Monografiya.–Samarqand; –2025.
4. Figley C. R. Compassion fatigue: Coping with secondary traumatic stress disorder in those who treat the traumatized. – 2nd ed. – London: Routledge, 2019.
5. Hamshiralarda kasbiy kompetentlik omillari shakllanishining ijtimoiy-psixologik determinantlari. PhD avtoreferat.–Toshkent, 2024.
6. Pedagoglarda kasbiy soʻnish jarayonining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari. PhD avtoreferat. – Toshkent, 2024.
7. Freudenberger H. J. Staff Burnout // Journal of Social Issues. – 1974. – Vol. 30, No. 1. – P. 159–165.
8. Maslach C., Jackson S. E. The Measurement of Experienced Burnout // Journal of Occupational Behavior. – 1981. – Vol. 2. – P. 99–113.
9. Factors Associated with Emotional Exhaustion in South Korean Nurses: A Cross-Sectional Study // Psychiatry Investigation. – 2018.
10. Nurses’ Burnout and Quality of Life: A Systematic Review and Critical Analysis of Measures Used // Nursing Open. – 2022.
11. Determinants of Emotional Exhaustion among Nursing Workforce in Urban Ghana: A Cross-Sectional Study // BMC Nursing. – 2020.
12. In the Line of Fire: A Systematic Review and Meta-Analysis of Job Burnout Among Nurses // Human Resource Management and Healthcare Research Journal. – 2023–2024. (PRISMA 2020 asosida).
13. Эмоциональное выгорание у медицинских работников // Молодой исследователь Дона. – УДК 159.9.072.432; 159.99. – 2021.
14. Эмоциональное выгорание: причины, последствия, способы профилактики // Психологические науки. – 2020.

15. Медицинские сестры: факторы профессионального выгорания // Менеджер здравоохранения. – 2021. – № 4. – С. 21–30.
16. Особенности эмоционального выгорания личности медицинских сестер разного профиля // Известия Иркутского государственного университета. Серия «Психология». – 2016. – Т. 16. – С. 14–22.
17. Профессиональное выгорание медицинских сестер // Вестник Тувинского государственного университета. Серия: Педагогические науки. – 2021. – № 4(87). – С. 61–70.
18. Сравнительный анализ проявлений синдрома эмоционального выгорания у медицинских сестер различной специализации // Вятский медицинский вестник. – 2017. – № 2(54).
19. Hamshiralarda kasbiy charchoq (burnout) va uni oldini olish choralari // Ilm-Fan Xabarnomasi. – 2025. – ISSN 3030-3931.
20. Tibbiyot hodimlarida hissiy charchoqni bartaraf etishning psixologik usullari // Behbudiy izdoshlari. – 2025.
21. Bo‘lajak tibbiyot hamshiralarda kasbiy kompetentlik haqidagi tasavvurlarni shakllantirishning ijtimoiy-psixologik omillari // Journal of Science-Innovative Research in Uzbekistan. – 2024. – Vol. 2, Issue 11.
22. O‘zbekistondagi shifokorlarning hissiy charchash xavfi yuqoriligi sabablari // Ilmiy nazariy tibbiyot jurnali. – 2021. – № 1(33). – B. 5–9.
23. Turli soha shifokorlarida emotsional so‘nish sindromi // Ilm-fan va ta’lim. – 2024. – № 2(19). URL: <https://ilmfanvatalim.uz/>
24. Emotsional charchoq (burnout) holatlarining o‘rganilganlik darajasi va kelib chiqish sabablari // Ilm-fan va innovatsiya ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. – 2024. DOI: 10.5281/zenodo.16830425.
25. Features of Development of the Burnout Syndrome among Nurses // Проблемные статьи и обзоры (TDSI). – 2020–2021.
26. Yadgarova Nargiza Faxritdinovna. Turli soha shifokorlarida emotsional so‘nish sindromi // Ilm-fan va ta’lim. – 2024. URL: <https://ilmfanvatalim.uz/>
27. Maslach C., Leiter M. P. Burnout: A multidimensional perspective // In: Cartwright S., Cooper C. L. (eds.). The Oxford Handbook of Organizational Well-Being. – Oxford: Oxford University Press, 2016. – P. 94–110.
28. Schaufeli W. B., Taris T. W. A meta-analysis of burnout among healthcare professionals // Frontiers in Psychology. – 2020. – Vol. 11. – Article 560.
29. Bakker A. B., Demerouti E. Job Demands–Resources Theory: Taking stock and looking forward // Journal of Occupational Health Psychology. – 2017. – Vol. 22(3). – P. 273–285.
30. Figley C. R. Compassion fatigue: Coping with secondary traumatic stress disorder in those who treat the traumatized. – London: Routledge, 2019